

Р. М. ПО'ЛATOVA

MAXSUS PEDAGOGIKA

OLIGOFRENOPEDAGOGIKA



TOSHKENT - 2005

74.3.
P-99

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

P.M. PO'LATOVA

MAXSUS PEDAGOGIKA


OLIGOFRENOPEDAGOGIKA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan (5141800 – defektologiya) bakalavr ta'lim yo'nalishli
talabalari uchun darslik sifatida ruxsat etilgan*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2005

Taqrizchilar

L.R.Mo'minova — pedagogika fanlari doktori, professor; **K.Q.Mamedov** — pedagogika fanlari doktori, professor; **A.I.Soatov** — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent; **R.Shomahmudova** — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent



Π99 Po'latova P.M.
Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika /P.M.Po'latova.-T.:
G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 224 b.

Muallif ushbu darslikda oligofrenopedagogika fanini o'qitish uslubiyati, tarbiyaviy ahamiyati, maqsad va vazifalari, uni o'qitishning o'ziga xosligi haqida fikr yuritadi. Darslikda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarbiya an'analari va aqidalari, metod va usullari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ayniqsa, unga mustaqillik mafkurasi g'oyalari singdirilgan.

Mazkur darslik yordamchi maktab o'qituvchilari va defektologiya fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan.

BBK 74.3 ya 7

4303000000 — 101
P M352 (04) — 2005 qat'iy buyurtma 2005

ISBN 5-635-02416-5

© P.M.Po'latova. G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2005-y.

SO'Z BOSHI

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan muassasalar tarmoqlari sobiq sho'ro hududida, ayniqsa, 1920-yillardan keyin jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'rlar, karlar, aqli zaiflar, nutqi buzilganlar uchun maxsus, alohida maktablar ochila boshlandi. Maxsus o'quv rejaları, dasturlar, darsliklar, uslubiy adabiyotlar yaratildi. Aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ishga joylashtirish haqidagi (1975) Qarordan keyin turli nuqsonli bolalarga bo'lgan munosabat birmuncha kuchaydi. Buning natijasida ancha mukammallashtirilgan darsliklar yaratila boshlandi.

Biroq, yordamchi maktab, uning maqsadi, vazifalari, bu maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, dars, uning tuzilishi, ta'lim tamoyillarining qo'llanilish xususiyatlari, ta'lim usullari, uning o'ziga xos tomonlari, aqli zaif bolalarni tarbiyalash masalalarini va boshqa qator muammolarni ochib beruvchi oligofrenopedagogika fanidan o'zbek tilida birorta qo'llanmaning yo'qligi qilinayotgan ishlarimizning yanada samarali bo'lishiga to'sqinlik qilib kelgan. Mustaqillik sharofati bilan yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar o'zbek tilida yaratilishiga va nashr etilishiga keng imkon yaratildi. Shularni inobatga olgan holda mazkur darslik yaratildi. Darslik birinchi bor yaratilayotganligi bois kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin. Maorif xodimlari va mutaxassislar darslik haqida o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar degan umiddamiz. Ular tomonidan bildirilgan fikr kelajakda darslikni takomillashtirishga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

1-BOB. OLIGOFRENOPEDAGOGIKANING UMUMIY MASALALARI

1.1. Defektologiya fani taraqqiyoti haqida

Tarixga, aniqrog'i, o'z tariximizga nazar solish har taraflama foydadan xoli emas. 1920-yillarga qadar bizning o'lkalarda defektologiya sohasida aytarli ishlar qilinmagan. Shu bois bu sohada ma'lum yutuqlarga erishgan rus va chet el defektologlarining maxsus ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlaridan foydalandik va foydalanishga o'zimizda ehtiyoj sezdik. Markaziy Osiyoda 1920-yillarda birorta turdagi maxsus muassasalar yo'q edi. Chor Rossiyasi davrida esa nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan xususiy sinflar, xayriya jamiyatlari mavjud bo'lib, 5—6 foizgina nuqsonli bolalar davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiyaga jalb etilgan edi.

Mamlakatda avj olib ketgan yuqumli kasalliklar, ochlik, tozalikka rioya qilmaslik, har xil shikastlanishlar va boshqa bir qancha sabablar keltirib chiqargan bolalardagi nuqsonlilik yuqori darajada edi.

1929-yilda O'zbekiston Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkentda alohida maktab ochildi.

Ko'r bolalar uchun mo'ljallangan binoda dastlab maktab yoshidan o'tgan 20 bola ta'lim oldi. Undan so'ng bu maktabga maktabgacha yoshdagi bolalar qabul qilindi. 1931-yildan e'tiboran Y.Oxunboboyev nomli maktabda maktabgacha tarbiya guruhi ishlay boshladiki, bu bolalar orasida uchraydigan nuqsonlilikka qarshi olib borilgan kurash samarasi edi. 1930—31-o'quv yilida ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan ko'r bolalar 1-sinfining ochilishi muhim siyosiy ahamiyat kasb etgan voqea bo'ldi. 30-yillarning oxirlariga kelib Qo'qon va Buxoroda ham xuddi shunday maktablar ochildi. 1931-yilda nuqsonli bolalarni majburiy ta'limga jalb etish haqida qaror qabul qilindi. Moskva va Leningrad pedagogika oliy o'quv yurtlarida hamda Toshkentdagi 3-pedagogika bilim yurtida o'zbek tilida maxsus mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

1941—1945-yillarda ham respublika xalq maorifi rahbariyati, mahalliy xalq maorifi organlari nuqsonli bolalarning, jumladan, urush ketayotgan joylardan ko'chirib keltirilgan bolalarning ahvolini va ularga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, hamma joylarda nuqsonli bolalarni ta'limga tortish ishini davom ettirdilar. Nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berish vazifalari